

JADIDCHILIK HARAKATINING ENG PESHQADAM VAKILLARI

Kasbi tuma 3-umumiy o'rta ta'lim maktabining ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Megliyeva Zebiniso Pardayevna

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar olmasdan bo'lur o'tkur,
Fikring oynasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir, o'lur benur*

(A.Avloniy)

XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu-milliy uyg'onish davrining boshlanishi bo'ldi va bu davr ma'rifatparvar ziyolilari taraqqiy etgan mamlakatlarga tenglashish g'oyasini ilgari surib chiqdilar. Qrim-tatar ma'rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy birinchilardan bo'lib bu g'oyani amalga oshiradi.

Ismoil Gaspirinskiy 1893-yilda Turkistonga keladi va Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiston jadidlari chorizm va mahalliy hokimlarning qarshiligiga qaramay, yangi usul maktablarini tashkil etishga kirishadilar: Salohiddin domla Qo'qonda, Shamsiddin domla Andijonda, Mannon qori Toshkentda, Hamza Hakimzoda Qo'qonning "Qashqar darvoza" mahallasida, Hojibek guzarida va Marg'ilonda, A.Avloniy Toshkentda, Degrez mahallasida, Samarqandda Ismatilla Rahmatillayev Registon ko'chasida, Abduqodir Shakuriy

"Rajabamin" qishlog'ida, Saidahmad Siddiqiy "Xalvoyi" qishlog'ida usuli savtiya maktablarini ochadilar. Shuningdek, toshkentlik Saidrasul Saidazizov, namanganlik Ishoqjon Junaydullayev-Ibrat ham bu usuldagi maktablarni tashkil etadilar.

Turkiston jadidlari ozodlik, ma'rifat uchun kurashlarini ma'lum dastur asosida ikki yo'nalishda madaniy taraqqiyotni rivojlantirish, buning uchun ma'rifatparvarlikka asoslanish va bu boradagi faoliyatni amaliyot bilan bog'liq holda olib boorish orqali amalga oshiradilar. Ular eng avvalo kishilar qalbini harakatga keltirish, qalblarida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otish uchun kurashadilar.

Dasturni ishiab chiqarish va amalga oshirishda Ubaydullaxo'ja Abdullaxo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdulhamid Cho'lpon faol ishtirok etdilar, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy ma'rifatparvarlik, ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari, g'oyalari bilan shuhrat qozondilar. Abdurauf Abdurahmon o'g'li Fitrat 1986-yilda Buxoroda savdogar oilasida tavallud topadi. Boshlang'ich bilimni eski maktabda, so'ngra Mirarab madrasasida ta'lim oladi. 1909-yilda Buxoro "Xayriya jamiyati" yo'llanmasi bilan Istanbulga borib, u yerda 4 yil o'qib, turk ma'rifatparvarlari bilan muloqotda bo'ladi.

Fitrat Buxoroga qaytgach, "Hurriyat" gazetasida "Hayot yo'lida birinchi masala-maktab masalasidir", -deb Yozgan edi.

Fitrat inson kamolotida oila, jamoa muhim o'rin egallashi, aqlning komil bo'lishi va

axloqiy poklik g'oyalarini ilgari surdi. U donishmandlik, shijoatlilik, adolatlilik kabi insoniy fazilatiarni ulug'ladi. Fitrat uchun insonlar millat tinchligi, taraqqiyoti har qanday qadriyatlardan ulug'dir.

Munavvar qori Abdurashidxonov 1878-yilda Toshkent shahrida Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida ziyoli oilasida tug'iladi, boshlang'ich ma'lumotni uyida, onasidan oladi, so'ngra Toshkent va Buxoro madrasalarida o'qiydi. U teatr san'atini millat va yoshlarning aqliy, ma'naviy tarbiyasida asosiy vosita deb hisoblaydi, 1913-yilda "Turon" nomi bilan havaskorlar jamiyatini tashkil etadi. Munavvar qori,

"Xayriya jamiyati"ning raisi muovini sifatida maktab va madrasalarga moddiy ionalar beradi, faqir bolalarni maktablarga jalb qilib, ularga tarbiya beradi.

Munavvar qori maorifni isloh qilishni milliy rivojlanish va Vatanni mustaqil qilishning asosiy omili, deb hisobladi. Mahmudxo'ja Behbudxo'ja o'g'li Behbudiy 1874-yil 10-mayda Samarqandda ilm- ma'rifatli oilada dunyoga keldi. Mahmudxo'ja 6-7 yoshlarida o'z tog'asi- ziyoli Muhammad Siddiq yordamida xat-savodini chiqaradi. U 1889, 1900 va 1914-yillarda dunyo kezib, yanada ko'proq hayotiy va nazariy bilimga ega bo'ladi. Behbudiy ilm- ma'rifatni targ'ib etuvchi 200 dan ortiq turli maqolalar yozib, matbuotda e'lon qiladi. 1912-yilda yozgan, „Padarkush“ sahna asarida ilm- ma'rifat, maorif va umuman, xalq ta'limi va ilmiy zaminga ega bo'lgan pedagogika masalalarini keskin qilib qo'ygani tufayli bu asar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on vaboshqa shahar-qishloqdagi havaskor teatrlarda uzluksiz ko'rsatiladi. Jadidchilik harakati deb nom olgan, mamlakat, xalq mustaqilligi uchun kurashgan mutafakkirlar, birinchi navbatda, maorifni tubdan o'zgartirish, millatni maorif sari, istiqlol sari undash shiori bilan chiqdilar:

Ko'zing och, yotma, g'aflatdan o'son, millat, o'son, millat,

Topar san birla avlodning, omon, millat, omon, millat

Jadidchilik harakatining eng peshqadam vakillaridan A. Avloniyning ushbu so'zlari faqatgina shior yoki da'vat emas edi, balki istiqlol fidoyilarining ham amaliy, ham ijodiy faoliyatining tub mohiyatini belgilar edi.

XX asr o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, madaniy- ma'rifiy hayotida buyuk o'zgarishlar, istiqlol, milliy mustaqillik uchun kurash asri bo'lib kirib keldi. Jadidchilik harakatining eng peshqadam vakillaridan biri- Ishoqxon Ibrat ijodining dastlabki yillaridan boshlab ma'rifatparvar shoir, olim sifatida nom chiqardi va zamona ilmidan, ilg'or madaniyatdan o'rnak olishga, ibrat olishga chaqirdi.

Ishoqxon Ibrat arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o'rganadi. Ishoqxon madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnixatni mukammal egallagan xattot sifatida shuhrat qozondi.